

AHOLINING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Sapabayeva Mehriniso Umidbekovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Magistratura Talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar: aholi bandligi, bandlik dasturlari, bandlik modellari, xorijiy tajriba.

Annotatsiya

Mazkur maqolada bandlik va mehnat bozorini tartibga solishda rivojlangan mamlakatlarda tajribalari oʻrganilgan. Mazkur davlatlar tajribalaridan mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini oshirish boʻyicha foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Bandlikni davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur sohani tartibga solishning shakl va usullarini jahon tajribasidan samarali foydalangan holda, tartibga solish qishloqlarning rivojlanishiga yordam beradi. Xalqaro tajribalarni oʻrganishda, toʻliq bandlik, bandlik kafolati, ish oʻrinlarining saqlanishi va rivojiga qaratilgan Xalqaro Mehnat Tashkiloti faoliyatini alohida kuzatish maqsadga muvofiq.

Rivojlangan mamlakatlarning bandlik sohasida olib boruvchi siyosatlari mehnat bozorining moslashuvchanlik konsepsiyasiga asoslanadi. U oʻz ichiga ishchi kuchining hududiy va kasbiy safarbarligini, yollanib ishlash, ishdan boʻshatish, korxonalararo xodimlarning safarbarligi, ish vaqtining boshqarilishi boʻyicha ishchi kuchining moslashuvchanlik koʻrsatkichlarini qamrab olgan. Masalan, Shvetsiyada milliy daromadning soliq va davlat xarajatlari asosida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, bandlik holatini bir maromda ushlab turish boʻyicha olib boriluvchi dasturlar (jamoaviy ishlarni tashkil qilish, ish joylarini yaratish va h.k.)ni ishlab chiqishda davlatning oʻrni katta boʻlsa, AQShda xukumatning aholi bandligini nazorat qilishga boʻlgan taʼsiri minimal darajagacha pasaytirilgan [1; 61-s.].

Jahon tajribasida aholi bandlik boʻyicha modellar orasida Amerika, Shved (Skandinaviya), Yevropa, Yaponiya va Xitoy modellari alohida ajratilib koʻrsatiladi [2; 148-b.]. Bulardan, Amerika modeli mehnatga layoqatli aholining katta qismiga ishlab chiqarish samarasi past va oʻz-oʻzidan kichik daromadga ega boʻlgan ish joylarini yaratishga qaratilgan. Bunday siyosatni olib borish ishsizlikni past darajada ushlab turish, xukumat tomonidan unga toʻsiq boʻlishi mumkin boʻlgan moliyaviy va iqtisodiy qarshilik holatlarining uchramasligiga olib keladi. AQShning zamonaviy bandlik siyosatidagi asosiy yoʻnalishlarga: ish haqi darajasini oshirish jihatidan ish joylari sifatini oshirish, kelajakda kasbiy ulgʻayishni taʼminlash, ish joylarini saqlash va ularni koʻpaytirishdir. AQSH siyosati, eng avvalo, bandlik oʻsishini ragʻbatlantirish va ish joylarini koʻpaytirish, ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, yollanma ishchi kuchiga koʻmaklashishga qaratilgan.

Shved (skandinaviya) modeli ishchi kuchining barcha guruh vakillari uchun davlat sektorida oʻrtacha (qoniqarli) mehnat va daromad sharoitlarini barpo etishga qaratilgan. Mazkur siyosatning kamchiligi –

faqatgina, kamayishi yoki cheklanishi shubhasiz ishlab chiqarishni pasayishi va ish joylarining keskin qisqarishiga olib keluchi xukumat moliyaviy vositalariga bo'lgan qaramlikdadir.

Bandlik siyosatining Yevropa modeli ishlab chiqarish samaradorligi oshib borayotgan bir paytda bandlar sonining kamaytirilishi va o'z-o'zidan ish bilan bandlar sonining daromadlarini ko'tarilishiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunday siyosat ishsizlarning ortib boruvchi qismiga ko'p xarajat talab qiluvchi tizimni barpo qilishni talab etadi. Mazkur siyosatning eng salbiy jihati – uzoq davom etuvchi ishsizlik va u bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy to'siqlarning ko'puhrashidadir.

Aholi bandligining yapon modelida davlat tomonidan nafaqat shahar, balki qishloq joylaridagi bandlik holatlari o'rganilib, aholini ish joylari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. Ishchi xodimlarining pensiya yoshiga yetgunga qadar, ya'ni umrbod yollanib ishlashiga qaratilgan bandlik tizimi (ayniqsa, qishloq hududlarida) keng tarqalgan [3; 214-s.].

Shuningdek, Yaponiyada xodimlardan uzoq vaqt davomida foydalanishni ko'zlash, ularning kasb tayyorgarligi va malakasini oshirishni ish o'rinlari tarkibi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini hisobga olgan holda, ichki firma darajasida amalga oshirish, avvaldan xodimning firma ichida kasbiy harakatchanligini nazarda tutishi, xodimlarda mehnatga, yuqori ish sifati darajasiga erishishga ijobiy yondashishni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Aholini ish bilan ta'minlashning Xitoy modeli iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan [4; 18-s.].

Rivojlangan mamlakatlarda bandlikni himoya qilishga qaratilgan normalarning qattiqligi darajasiga ko'ra ularni quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatiladi:

Liberal boshqaruv modeli amal qiluvchi mamlakatlar, unga ko'ra, ish beruvchilar iqtisodiy maqsadlilikka qarab xodimlarni ishga qabul qilish siyosatini amalga oshiradi (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Irlandiya, 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab Avstraliya va Yangi Zelandiya). Mehnat munosabatlari saqlangan model asosida faoliyat olib boriluvchi mamlakatlar, unda ish beruvchilar lozim bo'lgan ishchi kuchi sonidan foydalanishda katta miqdordagi cheklovlarga duch kelishadi (Italiya, Gretsiya, Turkiya, Germaniya va Fransiya) 5; 47-s.].

Boshqa barcha mamlakatlarni o'rta guruh vakillariga kiritish mumkin, chunki ularda qattiq cheklov choralari namoyon bo'luvchi bandlikni himoyalashga qaratilgan qonunchilikning qaysidir sohasi boshqa sohalardagi liberal qonunchilik bilan mutanosiblikda bo'ladi.

Bandlikni tartibga solishning shakl va usullarining tanlanishi muayyan bir iqtisodiy davr bilan bog'liq. Masalan, xorijda o'tkaziluvchi faol va nafaol siyosatni tahlil qilish iqtisodiy faollik cho'qqisiga chiqqan va doimiy o'sish kuzatilayotgan mamlakatlarda aholining ish bilan band bo'lmagan qismini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan nafaol tavsifdagi chora-tadbirlarga, iqtisodiyotning inqiroz holatida esa tadbirkorlik faoliyatini vujudga keltiruvchi va uni faol ishlashga yo'naltiriluvchi harakatlarni amalga oshirish hamda bandlikni ta'minlashga e'tibor qaratilganligini ko'rsatdi.

So'nggi o'n yillikda Yaponiya va AQShning xukumat organlari asosan yirik korporatsiyalar bilan ish olib borishmoqda. Shu o'rinda, ish haqi miqdorining belgilanishi ish bilan bandlik holatlariga ta'sir qilishini aytib o'tish lozim. G'arbiy Yevropa, Afrika va Osiyo mamlakatlarida hukumat organlarining shaxsiy firmalar ishiga aralashuvi ko'p kuzatiladi. Xukumatning liberal bilvosita boshqaruviga Germaniya va Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy vositalar asosida boshqaruv shakllarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda davlat boshqaruvi va xususiy korxonalar tashabbusi o'rtasidagi bog'lanish vazifasini ta'minlovchi savdo sanoat palatasi kabi daromad olmaydigan tashkilotlarning o'rni katta bo'ladi.

Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarda ishsizlik muammolari deyarli uchraymadi, garchi ushbu ko'rsatkich YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi hissasi bilan o'lchansa-da, bu ko'rsatkich esa barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining qishloq hududlarida shahar hududlariga nisbatan kam. Faqat ayrim

mamlakatlardagina qishloq hududlaridagi ish bilan bandlik muammolari mazkur mamlakatlarning asosiy bandlik ko'rsatkichlari qishloq xududlariga jamlanganligi sababli qisman halqilingan. (Masalan, Irlandiya, Ispaniya, Gretsiya va Fransiyada, biroq Finlyandiya, Italiya va Portugaliya bundan mustasno). Bandlik darajasi yuqori sur'atlar bilan o'sib boruvchi mamlakatlar ishsizlik muammosini, garchi u qishloq hududlariga oid bo'lsa ham, qishloq xo'jaligidan tashqarida ish joylarini yaratish orqali hal qilishga harakat qilgan. Mazkur rivojlanishga mamlakat YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi katta hissasi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvchi sabab bo'ladi [6; 39-s.]. Xorijda bandlikni tartibga solish xorijiy ishchi kuchini taqsimlash va qayta taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, katta miqdordagi xorijiy ishchi kuchi oqimiga duch keluvchi sanoati rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya va h.k.), so'nggi yillarda xorijiy ishchilarni o'z mamlakatlariga qaytarib yuborishga qaratilgan bir qator dasturlar ishlab chiqarilmoqda. Yevropaning ayrim mamlakatlarida urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan mintaqalardagi qishloq joylarida bandlikni tartibga solish tajribasidan foydalanish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarning ko'plab korxonalarida ijaraviy mehnatdan foydalanilmoqda. Bunga asos sifatida, 1980-1990 yillarda ushbu mehnat turining qonuniy asoslari shakllantirilganini sabab bo'lgan. XMTning 1997-yildagi 85- sessiyasida xususiy kadrlar agentliklariga doir 181-sonli va 188-sonli Konvensiyalari qabul qilingan. Ijaraviy mehnat turidan foydalanishda eng yuqori ko'rsatkich AQShga tegishli. Mamlakatda bunday toifadagi xodimlar ulushi umumiy ish bilan band aholi sonining 4,5 foizini tashkil etgan.

Xulosa. Hozirgi iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida aholini ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha xorijiy davlatlardagi qo'llanilib kelinayotgan amaliyotlar tajribasini o'rganish hamda tahlil etish mazkur davlatlar tajribasini mamlakatimiz uchun mos bo'lgan jihatlaridan foydalangan holda, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishning muhim, yangi istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholi ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha xorijiy amaliyotlar tajribasini ilmiy tadqiq va tahlil etish mazkur davlatlar tajribasining ilg'or, respublikamiz uchun qulay bo'lgan jihatlaridan foydalangan holda, aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishning samarali, istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

REFERENCES

1. ABDURAMANOV Khamid Khudaybergenovich & IBRAGIMOV Lutfullo Ziyadullaevich, 2015. "Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan" SEA - Practical Application of Science, Romanian Foundation for Business Intelligence, Editorial Department, issue 7, pages 363-368, April. <https://doi.org/10.31577/geogrcas>.
2. Ibragimov L. Z., & Khamroyeva F. A. (2021). Development of Small Business and entrepreneurship in industry and its influence on employment of population. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3 (03), 163-170.
3. Ibragimov Lutfullo Ziyadullaevich, Musayev Bekzod Murodovich, & Mirzayev Farkhod Sayidovch. (2021). EMPLOYMENT OF POPULATION AND ITS GEOGRAPHICAL STUDY. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 163-167. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1400>
4. Ibragimov, L. (2016). Importance of studying natural and geographical potential of regions in economicgeographical research (A case study of Samarkand Region). *Science and World. International scientific journal. Russia [online] № 7 (35) Vol. II. Pp.111-114 Available at: <http://scienceph.ru/>*.

5. Ibragimov, L. (2016). State policy in supporting an employment of the population in Uzbekistan. *Lucrările Seminarului Geographic "Dimitrie Cantemir"*. Romania. [online] 41 (1), pp.113-118. Available at: <http://www.seminarcantemir.uaic.ro>.
6. Ibragimov, L. (2017). Specialization of agriculture - as the solution to the problem of employment (A case study of Samarkand Region). *European Science Review*. Austria [online] 1 (2), pp.19-23. Available at: <http://www.ew-a.org>.
7. Ibragimov, L., 2017. The influence of demographic factors on employment and labor market (A case study of Samarkand Region). *Lucrările Seminarului Geographic*